

DIDAKTIK QONUNIYATLAR-TA'LIM JARAYONINI MODELLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSI

**A. CH. Choriev,
Ped.fan.dok.,
prof.
Qarshi DU kafedra mudiri.**

Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqishda har-xil yondashuvlar mavjud. Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish borasida sub'ektiv yondashuvlar, pedagogik qonuniyatlarni buzilishi oqibati uni tanazzulga olib borgani ma'lum. Pedagogik texnologiyaning nazariy va amaliy asoslarini yaratishda ob'ektiv qonuniyatlarga asoslanilsagina uning samaradorligi oshadi.

Keyingi yillarda ta'lim-tarbiya jarayonining ob'ektiv qonuniyatlari ilmiy asoslandi, bu pedagogik texnologiyani nazariy asoslarini yaratish imkonini berdi. Pedagogik texnologiya ishlab chiqarish texnologiyasiga monand: maqsad, mazmun, amalga oshirish metodlari, shakllari va kafolatli natija tizimidir. Ishlab chiqarish jarayonida fizika, matematika va tabiat qonuniyatlari mujassam bo'lganidek, ta'lim-tarbiya jarayonida ham pedagogik qonuniyatlar mavjud.

Falsafa lug'atida: «qonuniyat-tabiat va jamiyatdagi hodisalarning zarur va muhim aloqasi. qonuniyatli aloqalar, ular zaruriyatli xarakterga ega bo'lganliklari sababli, tegishli shart-sharoit mavjud bo'lganda, hamisha yuz berib turadi» deb izoh beriladi. Demak, qonuniyat barqaror takrorlanib turuvchi voqyea, hodisalarning ichki aloqadorligidir. Ular voqyelikning eng muhim ichki, nisbatan qaror topgan belgilarini, xususiyatlarini ifodalaydi.

Ijtimoiy faoliyatda, ishlab chiqarishda fizika, kimyo qonuniyatlari buzilganda kulfat keltirganidek, ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik-psixologik qonuniyatlarga amal qilinmasa kutilgan natija bermaydi.

Pedagogik qonuniyatlar haqida o'tgan asrning so'ngi choragida ayrim qarashlar yuzaga keldi. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonining nazariy asoslari "printsipalar", "tamoyillar", "qoidalar", "metodlar", "usullari", "vositalari" kabi kategoriyalar bilan ifodalanadi. Albatta, bu kategoriyalar pedagogik qonuniyatlardan qyelab chiqadi. Lekin ko'pgina tadqiqotlar va amaliy faoliyatda umumiy pedagogik qonuniyatlar yorqin ifodalanmaydi.


Ta'lim-tarbiya jarayoni qonuniyatlari kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotida amalda isbotlangan, qaror topgan pedagogik faoliyat mezonidir.

Bugungi kunda ilmiy asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonining quyidagi umumiy qonuniyatlari pedagogikaning metodologik asosini tashkil etadi:

- Ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud sharoitga, davr talabiga mosligi. Pedagogik faoliyatning vazifasi-ta'lim-tarbiya kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotida yoshlarni hayotga tayyorlash, yashashga, mehnat faoliyatiga tayyorlash buyurtmasiga asosan rivojlangan. Bugungi kunda, fanning tez taraqqiyoti, bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat buyurtmasi, kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilab berilgan.

Barkamol avlod ta'lim-tarbiyasining mazmuni, metod, vositalarini takomillashtirish ham fanning yutuqlariga asoslanishini taqozo etadi. Milliy g'oya, O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturi belgilab bergan vazifalar davlat va jamiyat buyurtmasi, ta'lim - tarbiyaning davr talabiga mosligi qonuniyatiga asoslanadi.

Таълим – тарбия жараёнини мавжуд шарт-шароитга ва давр талабига мослиги қонунияти




Nazariyaning amaliyot bilan birligi falsafiy kategoriyasi ta'lim-tarbiya jarayonining qonuniyatlaridan biridir. Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan birligi barkamol shaxsni hayotga tayyorlashning mezonidir. Nazariy bilim va amaliy ko'nikma bir-birini to'ldirish fanda isbotlangan. Pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashda nazariyaning amaliyot bilan uyg'unligi samaradorlik omilidir. Shuningdek, bilish jarayoni psixologik qonuniyatlarga asoslanadi.

Таълим – тарбия жараёнида назариянинг амалиёт билан бирлиги



Ta'lim-tarbiya va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi qonuniyati O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot modelida ma'naviyatning, ta'lim-tarbiyaning ustivorligi ta'limotining asoschisi I. A. Karimovning "Yuksak ma'anaviyat-yengilmas kuch" kitobida ta'kidlaganidek, "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi"dir¹. Iqar tomonlama rivojlangan komil inson barakamol avlodni shakllantirish mazmun, metod va vositalari uchun bu qonuniyat metodik mezondir.

Таълим – тарбия ва ривожланишнинг ўзаро боғлиқлиги




- Ta'lim-tarbiyaning o'quvchilar imkoniyati va layoqatiga mosligi qonuniyati didaktikasining asosiy tamoyillarida ifodalangan. Iqtidorli, iste'dodli yoshlarni topish, ularning layoqatini rivojlantirish yoshlarning jahon arenasiga chiqishi, bo'lajak Al Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiylarni tarbiyalashning nazariy asoslarini yaratishni ko'zda tutadi. Jahon tajribasi va pedagogika tarixida bu qonuniyat o'z isbotini topgan.

Tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashni o'rgatish va o'rganishning birligi, o'qituvchi va talabalar faolligiga bog'liqligi pedagogikaning qonuniyati ta'lim jarayoni texnologiyasida o'z ifodasini topgan. Oliy maktab pedagogikasi ta'lim-tarbiyaga texnologik, tizimli yondashuv metodologiyasi tajribada isbotlangan. Va, nihoyat ta'lim tizimida "gapbozlik", "shiorbozlik", "bayonsozlik", byurokratik tizimdan farqli o'qituvchi va talaba hamkorligi metodikasiga amal kilinadi. Pedagogik texnologiyaning interfaol usullari shu qonuniyat ifodasidir.

- Ta'lim-tarbiya maqsadi, mazmuni, metodlari va shakllarining o'zaro bog'liqligi pedagogik qonuniyati avvalo, ta'lim-tarbiya maqsadi, mazmuni, metod va vositalarini tanlashda optimal shart-sharoit hisobga olinadi. YuNESKOning pedagogik texnologiyaga bergan ta'rifida ta'lim jarayonini optimallashtirish, har bir komponentning o'zaro bog'liqligi asosiy mezon ekanligi ko'rsatilgan.

O'quvchilar kobiliyatiga mos mazmun belgilanashi, mazmunga mos metod va vositalar tanlanishi pedagogik aksiomadir. Buni V.P.Bespalkoning ta'lim jarayoniga tizimli yondashish modelida ko'rish mumkin.

V.P. Bespalkoning ta'lim jarayoniga tizimli yondashish modeli



- Ta'lim-tarbiyada fanlararo bog'liqlik qonuniyati. Avvalo pedagogikaning psixologiya bilan uzviy bog'liqligi ta'lim-tarbiya jarayonining metodologik asosidir. Ob'ektiv olamning bir butunligi fanlarni uzviy bog'liqlikda o'rganishni taqozo etadi. Ilmiy tadqiqotlarda ko'proq deferentsial holat mavjud bo'lsada, amaliyotda yaxlitlik integratsiya holati mavjud. Ta'lim-tarbiyada fanlararo bog'liqlik biri ikkinchisini to'ldiradi, barkamol shaxsni shakllantirish, yoshlarni hayotga tayyorlash samaradorligini oshiradi. qolaversa, haqiqiy bilim har bir narsa, predmet, voqyea-hodisa, tushuncha (so'z) ning kelib chiqish tarixiy taraqqiyoti, boshqa predmet, voqyea-hodisalar bilan bog'liqligi va bugungi kundagi ijtimoiy iqtisodiy mohiyatini bilishdir.

- Ta'lim-tarbiya jarayonining o'quvchi o'zligini bilishi va o'z-o'zini tarbiyalashga yo'llash. Abu Nasr Farobiyning ta'limiy fanlar tasnifi haqida "avvalo inson o'zligini bilishidan boshlash" ni tavsiya etadi. qolaversa kishilik jamiyati taraqqiyotida renessansning -asosiy mezonlaridan biri ham inson o'zligini bilish, "uyg'onish" davri sifatida ifodalangan. Inson imkoniyatlari cheksizligi, uning qudrati o'zligini qay darajada bilishi, o'z-o'zini tarbiyalashi bilan o'lchanishi Sharq falsafasi va tasavvufda ilmiy asoslangan.

Mustaqillik tufayli milliy istiqlol g'oyasida o'zlikni anglash tamoyili belgilab berildi, o'tgan qisqa davrda milliy o'zlikni bilash dasturi yaratildi. Kadrlash tayyorlash milliy modelida shaxs ta'lim-tarbiyaning iste'molchisi va amalga oshiruvchi ekanligi ko'rsatildi. Keyingi yillar pedagogik tadqiqotlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya muammosi o'rganila boshlandi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi va amaliyotida psixologik qonuniyatlarga asoslaniladi. Inchunun, axborotlarni globallasuvi sharoitida yoshlar qanchalik o'zligini tezroq anglashi, hayotda o'z o'rnini topishi mustaqil fikrlashi, bilim olishi va o'z-o'zini tarbiyalashga bog'liq.

Ta'lim-tarbiya jarayoni pedagogik-psixologik qonuniyatlarga asoslansagina samarali bo'ladi.